

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Yo'lbarsova	
Biologiya yo'nalishi talabalarining bioetik madaniyatini rivojlantirishning nazariy jihatlarini	219
U.Q.Maqsudov	
Jahon transformatsiyasi sharoitida talabalarning innovatsion va startap loyihalardagi faolligini shakllantirishning pedagogik yo'nalishlari	223
A.A.Shikina	
How does AI contribute to boosting self-esteem among efl learners? A case study of Fergana State and TATU Universities	229
N.K.Abbasova	
Insights, challenges, and needs of esp teachers in the efl context	239
D.B.Abbasova	
Improving written argumentative competence using critical skills technology	243
A.I.Tuychiyev	
Maktabgacha yoshdagilar jismoniy madaniyati, vazifalari, harakat sifatlariga mansub kasbiy nazariy bilimlar	246
M.T.Zoxidova	
Interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar orqali bo'lajak pedagoglarning mahoratini rivojlantirish	251
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati.....	255
F.O'.Toshboltayev	
Pedagogik ta'lim va dars amaliyotida AKT integratsiyasining samaradorlikka ta'siri.	259
D.A.Muxammadaminova	
Pedagogik mahorat tushunchasining nazariy asoslari va zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan malaka talablari	262



UO'K: 378.015.31:17

**BIOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARINING BIOETIK MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI****ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ БИОЭТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ
СТУДЕНТОВ-БИОЛОГОВ****THEORETICAL ASPECTS OF DEVELOPING BIOETHICAL CULTURE OF BIOLOGY
STUDENTS**

Yo'lbarsova Ismigul Ibrohimjon qizi 
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada biologiya yo'nalishi talabalarining bioetik madaniyatini shakllantirishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, fanlararo hamkorlik sharoitida bioetik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tizim va uning samaradorligi o'rganiladi. Biologiya talabarlari orasida bioetik qadriyatlarni shakllantirishda nazariy yondashuvlar va amaliy mexanizmlarning o'rni yoritiladi.

Аннотация

В статье анализируются теоретико-методологические основы формирования биоэтической культуры у студентов биологических направлений. Особое внимание уделено педагогической системе развития биоэтической культуры в условиях междисциплинарного взаимодействия, а также эффективности её применения. Рассматриваются как теоретические подходы, так и практические механизмы формирования биоэтических ценностей у студентов-биологов.

Abstract

The article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing bioethical culture among students majoring in biology. Special emphasis is placed on the pedagogical system aimed at fostering bioethical awareness through interdisciplinary cooperation and evaluating its effectiveness. Both theoretical approaches and practical mechanisms for instilling bioethical values in biology students are discussed.

Kalit so'zlar: *biologiya, texnologiya, bioetik madaniyat, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, shakl, metod, vosita, baholash, kreativ fikrlash, fanlararo hamkorlik, raqamli texnologiyalar.*

Ключевые слова: *биология, технология, биоэтическая культура, совершенствование, педагогический, технологический, модель, дидактический, форма, метод, инструмент, оценка, творческое мышление, междисциплинарное сотрудничество, цифровые технологии.*

Key words: *biology, technology, bioethical culture, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, form, method, tool, evaluation, creative thinking, interdisciplinary cooperation, digital technologies.*

KIRISH

Bioetik masalalarni muhokama qilish jamiyatda manfaatdor tomonlarning o'zaro muloqotiga asoslanadi. Tibbiyot xodimlari, olimlar, huquqshunoslar va jamoatchilik orasidagi hamkorlik bioetik qarorlarni qabul qilish jarayonini samarali amalga oshirish uchun muhimdir. Ushbu hamkorlik islohotlarga, yangi standartlarga va normativ hujjatlarga olib kelishi mumkin. Texnologiyalarning rivojlanishi bilan bioetika masalalari yanada murakkablashmoqda. Genetik tahlil, kloninglash va sun'iy intellekt kabi sohalarida paydo bo'layotgan yangi etik muammolar jamiyatni yanada ko'proq tahdidlarga duchor qilmoqda. Shu sababli biz bioetika madaniyatini shakllantirishimiz kerak – bu nafaqat meditsinaning rivoji uchun balki inson qadrini saqlab qolish uchun ham muhimdir. Shunday qilib, bioetik madaniyat – bu insoniyatning manfaatlari uchun xizmat qiluvchi kompleks jarayondir. U axloqiy qarorlarni qabul qilishga yordam beradi, odamlarning huquqlarini himoya qiladi va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi. Shunday ekan, biz har birimiz bioetik savodxonlikka ega bo'lishimiz kerak – bu nafaqat shaxsiy haqiqatimiz balki butun jamiyat uchun muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bioetikani rivojlantirishning zarurati, hozirgi davr tibbiyotining bioetika bilan bog'liq jihatlari, biotexnologiyalar rivojlangan asrda bioxukmronlikning oqibatlari, biotexnologiyalarning inson salomatligini saqlashdagi roli, bioetik dunyoqarash, tafakkur va madaniyatni rivojlantirish kabi masalalar Z.Muxamedova, F.Zagriddinova, R.Xudoyberganov, N.Umrzoqova, Sh.Isaxova, M.Nurmatova, Y.Vodopyanova, Y.Lopuxin, Y.Tishenko, F.Nejmiddinova, A.Papova, M.Lanovskiy, R.Belyaletdinovlar tomonidan o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bioetika — biologiya, meditsina, huquq va etika sohalaridagi muammolarni hal qilishga qaratilgan falsafa tarmog'i. U inson hayotining turli jihatlarini, jumladan, tibbiy tadqiqotlar, genetik modifikatsiya, organ berish va boshqa himoya etish kerak bo'lgan masalalarni qamrab oladi. Bioetika asosan inson qadrini yuqori doirada saqlash va jamiyat uchun foydali qarorlarni qabul qilishga intilgan.

Bioetikani to'g'ri tushunish uchun uning asosiy yo'nalishlariga e'tibor qaratish muhimdir:

1. Tibbiy etika tibbiyotdagi professional munosabatlarga oid prinsiplarni o'rganadi. Bu yo'nalish bemorlar bilan muomala, tibbiy ma'lumotlarni oshkorlash va tibbiy ta'lim sifati bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi.

2. Genetik tahlil va gen muharrirlari bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Ushbu yo'nalish genom tahlilining inson huquqlari, ijtimoiy adolat va o'zgarishlarga ta'sirini qarashga moslashadi.

3. Insonning tabiatga ta'sirini o'rganadi va ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida ijtimoiy mas'uliyatga urg'u beradi. Bu yo'nalish hayot shakllarining muhofazasi va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish uchun eng yaxshi usullarni izlamda.

4. Jamiyatning turli qatlamlari orasidagi tengsizliklarni ko'rib chiqadi. Inson huquqlari, ijtimoiy adolat va xuquqiy muhofaza uchun usullarni ishlab chiqish maqsadida tadqiqot olib boradi.

Bioetikani rivojlantirishning ustuvor maqsadlari ham mavjud:

1. Bioetika inson hayotining qadrini ta'minlashga intilmoqda, bu esa har qanday qaror qabul qilishda birinchi navbatda inson manfaatini hisobga olish zarurligini anglatadi.

2. Bioetik muammolar ko'pincha ijtimoiy tengsizliklarga sabab bo'ladi. Shuning uchun bioetika sohasida hal etilgan qarorlar ijtimoiy adolat prinsipiga mos kelishi kerak.

3. Bioetika tadqiqotlarda shaffoflikni ta'minlash va bemorlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida ishlaydi.

4. Tabiat resurslarining oqilona foydalanilishi bioetika sohasining muhim maqsadi hisoblanadi, bu esa kelajak avlodlarga barqaror muhit yaratish uchun muhimdir. Shu ma'noda, bioetika – zamonaviy jamiyatning murakkab masalalarini hal qilishga qaratilgan muhim sohadir. U inson huquqlari, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik kabi prinsiplarni asos qilib oladi, bu esa har birimiz uchun ahamiyatlidir iuimizga bevosita ta'sir etmoqda. Bioetik prinsiplarga amal qilish orqali biz qiynalayotgan muammolarga yechim topa olamiz hamda kelajak avlodlarga yaxshiroq muhit yaratishimiz mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmida transplantologiya, irsiy diagnostika, irsiy injeneriya va klonlash rivojlana boshladi. Tibbiyot texnikasi o'z rivojlanishida shunday darajaga yetdiki, vrach ilgari o'lishi muqarrar bo'lgan bemorlarning hayotini endilikda sun'iy ravishda saqlab tura oladi. Texnika sohasidagi yutuqlar bemorlar, o'lim tushagida yotganlar va nogironlarning huquqlarini yuridik jihatdan asoslashning yangi-yangi shakllari va usullari paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Etikaning boshqa muammolardagi ishtiroki ham kengaydi - siyosatchilar o'z faoliyatida etika qoidalariga tobora ko'proq tayanmoqdalar, jamoatchilik biznes va reklama ustidan etik nazoratni o'rnatishni talab etmoqda, ekologiya esa atrof-muhit bilan munosabatlarni tartibga solishda etika qoidalariga rioya etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bioetik bilimlar insonning turli tiriklik shakllariga, hayvonlarga munosabatini ko'rib chiquvchi amaliy etika nuqtayi nazaridan inson xulq-atvorining axloqiy jihatlariga taalluqli bo'lgan tushuncha deb, insonning o'zini qurshagan muhit oldidagi mas'uliyati deb, insonning xulq-atvori va boshqa insonga munosabati deb tushuniladi.

Hozirgi zamon etikasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida bioetika inson hayotini eng oliy axloqiy qadriyat deb biladi. Inson hayotini saqlash muammosini yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezonini, deb hisoblaydi. Bioetika tirik mavjudotlar, shu bilan birga, insonga

ham bo'lgan munosabatlarning axloqiy regulativi, uning madaniy negizini axloqiy javobgarlik tashkil etadi. U sotsial masalalar bilan birgalikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi niyatlarini yaratuvchi, inson xatti-harakati, ruhiyatini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uning ustidan o'tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi. Darhaqiqat, ilmiy kashfiyotlar va ilmiy tarqiyotning, fan yutuqlarining inson turmush tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatkichlari qanchalik yuqori bo'lishiga qaramasdan, "inson-tabiati-jamiat" tizimi doirasidagi meyor va mezon qoidalarini muayyan ma'noda buzilishi bioetikani shakllantirishni davr talabi darajasiga ko'tardi. Bioetika xususan, biomuhit manfaatlarining oqilona nisbatini himoyasi muammolariga o'z maqsadlarini birlashtirgan holda, barcha tirik mavjudotning mavjudligiga, inson hayoti va salomatligi doiralaridan tashqariga chiqmaslikka, irsiyatini o'zgartirish masalalarida avvalo insoniylikni saqlab qolishga, irsiyatga qanday ma'naviy mezonlarga ko'ra, qaysi ideallarga, qaysi qadriyatlarga asoslanib, aralashish muammolari, fojiali harakatlarni oldini olishga qaratilgan dolzarb masalalarda o'z aksini topmoqda. Oddiy qilib aytganda, bioetikani meyoriy jihatini, uning ma'naviy asosini "hayotga bo'lgan hurmat", "tiriklikni qadrlash", "hayotga ehtirom" tamoyili tashkil etadi. Bunda avvalo, axloqiylik, muhabbat va xayrixohlik hayot oldidagi hurmatning faqat ajralmas qismi hisoblanadi. Hayotga ehtirom etikasi, shuningdek, har bir xilqatning xayrixohlik va qadr-qimmatga qay darajada mosligi yoki uning uchun hayot muqaddas ekanligi, bu avvalo yashaydigan hamma xilqatlar oldidagi cheksiz mas'uliyatdir. Shu ma'noda bioetika inson hayotiy faoliyatining amaliy falsafasi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda ko'plab diniy jamoalarda, misol uchun, musulmonlar orasida bioetikadagi muammolar xam o'rganilmokda. Misol tariqasida etika ilmi, islomda bioetika masalalari bo'yicha amalga oshirilgan V.Mammadaliyev va S.Musayevlarning "Islom va bioetika", F.B.Hamidaning "Tibbiyot, biotexnologiya va musulmon axloqi", A.H.Aksekining "Islom axloqi va etika", I.Karimovning "Tibbiy etika va bioetika o'rtasidagi o'zaroaloqadorlik" masalasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari kabi bir qator ilmiy tadqiqot natijalarini keltirish mumkin. Etikaning barcha tizimlari, diniy yoki diniy bo'lmasin, etika va qonun masalasi juda muhim masala hisoblanadi.

Islomda bioetika - bu, asosan, islom huquqi va etikasi tarmoqlaridan biridir. Bioetik adabiyotlarga ko'ra, va aynan islom bioetikasida, islom ulamolari ko'pincha islomning asosiy manbalariga havola qiladilar. Islom ta'limotiga ko'ra, islom jamiyati ta'minlashi kerak bo'lgan eng asosiy tamoyillardan biri bu adolatdir. Islomiy biotetikaning asosiy tamoyillarini ishlab chiqishga bo'lgan ko'p urinishlarda asosiy urg'uni adolatga qaratish o'ta muhimdir. Bugungi kunda islomning etika-huquqiy an'anasi ham biotibbiyot ko'yayotgan savollarga javob izlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Islom bioetika masalalari bo'yicha qaror qabul qilishda qandaydir mavhum emas, balki, bir tarafdin, ma'lum ma'nodagi siyosiy-huquqiy tizim asosida va mavjud ijtimoiy qoidalar asosida bo'ladi. Islomiy bioetikada har qanday yangi biotexnologik jarayonni qo'llashdan oldin uning shariatga to'g'ri kelishi yoki kelmasligi (uning halol yoki haromligi) haqidagi savol yuzaga chiqadi, olimlar va shifokorlar islom olimlari fikrini bilishga harakat qilishadi.

XULOSA

Bioetika va uning qoidalariga amal qilish bo'yicha o'ziga xos yondashuvlar bo'lib, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda bioetika muammolari muvofiq qonunchilik asosida boshqariladi. Bioetika va inson huquqlari bo'yicha YUNESKO deklaratsiyasida inson haq-huquqlari va qadr-qimmatini universal tamoyillari ishlab chiqilgan bo'lib, amalda mavjud xalqaro bioetika qo'mitasi bioetika meyorlari, axloqiy meyorlarga rioya qilgan holda ishlashni, shuningdek, texnologiya taraqqiyot davrida ishlab chiqilayotgan yangi genetik usullarni, inson va tabiat, inson va atrof muhitning o'zaro bog'liqlik va aloqadorlik kabi masalalariga oid bioetika muammolarini tadqiq va tahlil qiladi. Jumladan, tibbiyotda genetik kashfiyotlarning qo'llanilishida insoniylik, axloqiylik mezonlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror ekologik vaziyatni qaror toptirish, tabiiy atrof-muhit musaffoligini saqlash, transmilliy hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, barqaror ekologik xavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Isaxova SH.M. Bioetikada konservativ va innovatsion yondashuvlarning falsafiy-madaniy tahlili. Falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi Avtoreferati. – Toshkent: O'zMU 2022
2. Белялетдинов Р. Р. Риски современных биотехнологий: философские аспекты: дис. канд. филос. наук. – Москва. 2017. – 185

PEDAGOGIKA

3. Загритдинова Ф. Б. Философско-этический анализ проблем современной биомедицины (на примере Республики Узбекистан). Дисс. док. филос. наук. – Тошкент: НУУ. 2006
4. Лопухин Ю. М. Биоэтика и современная медицина // Врач. - 2001. – № 10
5. Мухамедова З. М. Проблемы смерти мозга в исламской биоэтике // Гуманитарный трактат – 2017. – № 17, – С. 15-19
6. Тищенко П. Д. Феномен биоэтики // Вопросы философии. – 1992. – № 3. – С.104-113
7. Фатеева И.А. Медиаобразование: теоретические основы и опыт реализации / Монография. – Челябинск: Изд-во Челяб. ГУ, 2007. – С. 193
8. Қаххарова М. Биоэтика инсон ҳаётий фаолиятининг амалий фалсафаси // НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil 7-сон. –Б. 168.